

**CHET TILI O'QITISH METODIKASINING TA'LIMSHUNOSLIK
ASOSLARI
ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЙ В МЕТОДОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ
ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА
DIDACTIC BASICS OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING
METHODOLOGY**

Komoldinova Odinaxon Farhodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

odinaxonkomoldinova@gmail.com

Annotatsiya: Tabiat va jamiyat hodisalari o'zaro bog'langan va uzluksiz aloqada rivojlanadi. Fanlar obyektiv voqelik (tabiat va jamiyat)ning in'ikosi ekanligi uchun ularning hech biri boshqalaridan ajralgan holda mavjud emas. Hodisa va predmet ayni zamonda bir talay fanlarning tadqiqot manbayi bo'la oladi, masalan „til“ ijtimoiy hodisasini o'z nuqtayi nazaridan tilshunoslik (lingvistika), ruhshunoslik (psixologiya), ta'limshunoslik (didaktika) o'rganadi. Ushbu maqolada chet tili o'qitish metodikasining ta'limshunoslik asoslari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Chet tili, ta'limshunoslik (didaktika), metodika, pedagogik texnologiyalar, Brainstorming.

Аннотация. события природы и общества допросы и непрерывно развиваются. Поскольку субъекты являются отражением объективной реальности (природы и общества), ни один из них не отделен от других. Инцидент и объект могут быть источником исследования, например, социальным явлением лингвистики, психологии (психология), преподаванием студента (дидактика). В этой статье представлена информация о основах обучения методологии преподавания иностранных языков.

Ключевые слова: иностранный язык, образование (дидактическое), методические, педагогические технологии, мозговой штурм.

Annotation. The events of nature and society are interrogated and continuously developed. Since the subjects are a reflection of objective reality (nature

and society), none of them are separated from others. The incident and the object can be a research source, for example, the social phenomenon of linguistics, psychology (psychology), teaching student (didactics). This article provides information on the basics of education of methodology of teaching foreign languages.

Keywords: Foreign language, education (didactic), methodical, pedagogical technologies, brainstorming.

Ijtimoiy hodisa bo‘lmish tilni o‘qitish metodikasi boshqa yaqin fanlarning ijobiy tajribalaridan bahramand bo‘ladi, ularning yutuqlarini o‘ziga singdirib oladi. Chet til metodikasi erishgan zamonaviy natijalardan pedagogika fanlarining boshqa sohalari ham foydalanishi so‘zsiz, albatta. Chet til - bu xorijiy mamlakat tili. Respublikamizda G‘arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari va Sharq (arab, turk, urdu, fors, xitoy, hind) tillari o‘qitilmoqda. Ular ta‘lim muassasalarining o‘quv rejalaridan o‘rin olgan. Ona tili va ikkinchi til ta‘limidagi qoidalar sistemali (uzviy) lingvistik mazmun kasb etadi. Chunki tilni tabiiy muhitda amaliy o‘rganish va unga ajratiladigan vaqt (soatlar) miqdori mukammal qoidalar berish imkoniyatini yaratadi. Chet til o‘rgatish sharoiti (sun‘iy muhit va ajratilgan kam soatlar) qoidalarni oddiylashtirish va sonini ozaytirish muammosini ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Til birligi, bir tomondan, sezgilar yordamida idrok etilsa, ikkinchi tomondan, faqat tafakkur hosilasi, mantiqiy jarayon natijasi bo‘lib ro‘yobga chiqadi.

Chet til o‘qitish metodi – deyilganda chet til o‘rgatishning amaliy, umumta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta‘minlovchi muallim va o‘quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi “ta‘lim usullari yig‘indisi” va “ta‘limning yo‘nalishi” ma‘nolarida qo‘llanadi. Birinchisi ta‘lim nazariyasida jarayon metodlar ma‘nosida ishlatilsa, ikkinchi ma‘noda uni o‘qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, chet til o‘qitishning tarjima metodi, to‘g‘ri metod, ongli- qiyosiy metod, an‘anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi.

Chet til o‘rganish ko‘p qirrali ta‘limot bo‘lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o‘zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini

taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Chet til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Chet til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog'liq bo'lganligi sababli, chet til o'rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi. Kommunikativ didaktika metodini qo'llash jarayonida pedagogning madaniyatlararo muloqotni shakllantirish metodi ham shakllanadi.

Kommunikativ didaktika tinglab tushunish materiali sifatida tabiiy nutqiy vaziyatdan foydalanishni birinchi o'ringa qo'ydi, ya'ni, transportdagi, vokzaldagi e'lonlar, radio va televideniyaedagi reklamalar, telefondagi suhbatlar va shu kabilarni misol keltirishiiz mumkin. Axborotni tinglab tushunish qabul qilish bo'yicha qo'yilgan maqsadlar o'zgardi. Tinglaganini hikoya qilish va nazorat qilish ham boshqacha tus oldi.

Chet til o'rganish natijasida o'zga mamlakat madaniyati ham o'zlashtiriladi. Chet til ta'limida kerakli bilimlarni egallash uchun “mashqni tashkil qilish texnologiyasi” muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha bilimlarni o'zlashtirish uchun mashq eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq nafaqat chet til ta'limida balki barcha soha bilimlarini o'zlashtirishda ham ijobiy natija beradi. Darsni samarali tashkil etish, unda pedagog faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Chet til o'rganish jarayonini kommunikativlikka yondashgan holda tashkil qilish, keyingi bosqich madaniyatlararo muloqot darajasiga yetkazish, bunday natijalarga erishish uchun esa, so'ngi qadam, “mashq texnologiyasi”ga e'tibor qaratish muhim.

Chet tilini o'rgatishda zamonaviy metodlarning ahamiyati beqiyos. Shu o'rinda hozirgi davrda keng qo'llanilayotgan bir nechta metodlardan foydalanib kelinmoqda. Masalan:

1. "B-B-B" (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) metodi. Bu usul dars jarayonida o'quvchilarning matnni tushinishini, uni tahlil qilish qobiliyatining o'sishi uchun kerakli usul hisoblanadi.

2. "Aqliy hujum" (Brainstorming)- g'oyalarni generatsiya qilish metodi hisoblanadi. Bu usulning mohiyati o'quvchilarda jamoa hamkorligi asosida muammo yechish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga : g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqishdan iboratdir.

3. "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving). Bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanish qismi o'qib beriladi va uning yakunlovchi qismini topish o'quvchilar hukmiga havola qilinadi. Bu usul o'quvchida fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

4. "Tezkor savol" (Quick answers). Bunda o'quvchilarga o'tilgan mavzu yuzasidan savol beriladi. Bu metod o'tilgan dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Demak, yuqorida ko'rsatilgani kabi har bir metodning chet tillarni o'rgatishda samarali usullari bor ekan. O'qitish jarayonida har bir darsda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan unumli foydalanish o'quvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga jiddiy yondashishiga, bilim olishga qiziqishlarini kuchaytirishga yordam beradi. O'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Великанова А. В. Компетентностно-ориентированный подход к образованию / А. В. Великанова // Серия «Компетентностно-ориентированный подход к образованию». – Вып. 2 – Самара : Профи, 2002. – С. 92
2. Bekmurodova.U.B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat., Toshkent 2012-yil.

3. N. Q. Xatamova, M.N. Mirzayeva. “INGLIZ TILI DARSLARIDA QO’LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR” (uslubiy qo’llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.
4. Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences, 2